

OLIV TA'LIMDA MUSTAQIL FIKRLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Sharipova Maftuna

Urganch Ranch texnologiyalar Universiteti
Pedagogika muatxassisligi 2-kurs magistranti.

Tel: +99877-777-85-75

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19563657>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari yoritilgan.

Mustaqil fikrlashning mohiyati, uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'rni, innovatsion o'qitish metodlari orqali rivojlantirish yo'llari tahlil qilingan. Muammoli ta'lim, interfaol metodlar, loyihaviy va tadqiqot faoliyatiga asoslangan yondashuvlar samaradorligi ilmiy manbalar asosida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, oliy ta'lim, pedagogik metodika, interfaol ta'lim, muammoli ta'lim, innovatsion yondashuv.

Аннотация. В статье рассматриваются педагогико-методические основы формирования и развития навыков самостоятельного мышления у студентов высших учебных заведений. Анализируется сущность самостоятельного мышления, его значение в современном образовательном процессе, а также эффективность инновационных, интерактивных и проблемных методов обучения.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, высшее образование, педагогическая методика, интерактивное обучение, проблемное обучение.

Annotation. This article examines the pedagogical and methodological foundations of developing independent thinking skills among higher education students. The essence of independent thinking, its role in modern education, and the effectiveness of innovative, interactive, and problem-based teaching methods are analyzed.

Keywords: independent thinking, higher education, teaching methodology, interactive learning, problem-based learning.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqamli texnologiyalar sharoitida oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — raqobatbardosh, tanqidiy va mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislarni tayyorlashdan iborat. Ta'lim jarayonida talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga emas, balki bilimlarni mustaqil tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi¹.

Shu bilan birga ularga zamonaviy texnologiyalarni va interfaol metodikalarni o'rgatib borishimiz zarur hisoblanadi. Mustaqil fikrlash shaxsning intellektual rivojlanish darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, oliy ta'limda bu ko'nikmani shakllantirish pedagog faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim².

1. MUSTAQIL FIKRLASH TUSHUNCHASINING MOHIYATI

Mustaqil fikrlash — bu shaxsning mavjud bilimlar asosida yangi xulosalar chiqarish, muammolarni tahlil qilish va ijodiy yondashuv asosida hal etish qobiliyatidir³. Mustaqil fikrlash nafaqat talabani balki o'quvchini ham oldinga bir qadam tashlashiga yo'l ochadi. Ayniqsa bugungi kunga kelib kreativ fikrlash juda kop imkoniyatlarga sababchi bo'ladi.

Pedagogik adabiyotlarda mustaqil fikrlash quyidagi tarkibiy qismlardan iborat deb qaraladi:

- tanqidiy tahlil qilish;
- muammoli vaziyatni anglash;
- ijodiy yechim topish;
- o'z fikrini asoslab berish.

Psixolog olim L.S. Vygotskiy fikricha, mustaqil fikrlash ijtimoiy tajriba va ta'lim jarayoni bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u faol o'qitish metodlari orqali rivojlanadi⁴.

2. OLIY TA'LIM JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH ZARURATI

An'anaviy ta'limda asosan reproduktiv faoliyat ustun bo'lib, talaba tayyor bilimni qabul qiluvchi subyekt sifatida namoyon bo'ladi. Zamonaviy ta'lim esa talabaning faolligini, mustaqilligini va ijodkorligini talab etadi⁵. Oliy talim jarayonida talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish ularni keying bosqichga tayyorlashga yordam beradi.

Oliy ta'limda mustaqil fikrlashni rivojlantirish quyidagi omillar bilan bog'liq:

- kompetensiyaviy yondashuvga o'tish;
- mehnat bozorining talablarining o'zgarishi;
- ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash.

3. MUSTAQIL FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODLARI

3.1. Muammoli ta'lim metodi

Muammoli ta'lim talabalarda bilishga bo'lgan ehtiyojni oshiradi va mustaqil xulosa chiqarishga undaydi⁶. Bu metodda:

- muammoli savollar beriladi;
- muammoli vaziyatlar yaratiladi;
- talabalar mustaqil izlanishga jalb qilinadi.

3.2. Interfaol metodlar

Interfaol metodlar (bahs-munozara, aqliy hujum, klaster, INSERT) talabalar o'rtasida fikr almashishni kuchaytiradi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi⁷.

3.3. Loyihaviy va tadqiqot faoliyati

Loyihalar asosida ishlash talabalarni real muammolarni hal qilishga yo'naltiradi.

Tadqiqot faoliyati esa mustaqil ilmiy fikrlashni shakllantiradi⁸.

O'QITUVCHINING METODIK FAOLIYATI

Mustaqil fikrlashni rivojlantirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. O'qituvchi:

- yo'naltiruvchi;
- maslahatchi;
- fasilitator vazifasini bajaradi⁹.

Dars jarayonida ochiq savollar, muammoli topshiriqlar va refleksiya usullaridan foydalanish yuqori samaradorlik beradi.

TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Raqamli ta'lim platformalari, elektron resurslar va onlayn muhitlar talabalar mustaqil o'rganishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi¹⁰. Masofaviy ta'lim sharoitida mustaqil fikrlash ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hozirgi jadal rivojlanib borayotgan zamonaviy texnologiyalarini bo'lajak kadrlarga o'rgatish orqali o'quvchilarning talim jarayonida faol qatnashishga hamda talim sifati yuksalishiga hissa qo'shadi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish quyidagi pedagogik yondashuvlarga asoslanadi:

- kompetensiyaviy yondashuv – bilimdan ko‘ra uni qo‘llashga yo‘naltirilganlik;
- shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim – talabning individual imkoniyatlarini hisobga olish;
- faoliyatga asoslangan yondashuv – bilimlarni amaliy faoliyatda egallash;
- refleksiv yondashuv – o‘z-o‘zini baholash va tahlil qilish.

Ushbu yondashuvlar talabning bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, oliy ta‘limda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish ta‘lim sifati va samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. Bu jarayon innovatsion metodlar, interfaol yondashuvlar va o‘qituvchining metodik mahorati asosida amalga oshirilishi lozim.

Talabalarning mantiqiy fikrlashini va mustaqil fikrlashini rivojlantirish talim sifatini oshirishda muhim omil ekanligini bildiradi. Oliy ta‘limda mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda har xil metodikalar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Ushbu metodika raqobatbardosh, ijodkor va mustaqil fikrlay oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi.

Bo‘lajak kadrlarni shu jarayoni ko‘rish va o‘zida shu ko‘nikmalarni rivojlantirish yordamida erkin fikr yurita oladi. Pedagoglar talim berish jarayonida mustaqil fikr yuritishi orqali o‘quvchilarga bilimni aniq va tushunarli qilib yetkazadi shu sabab bo‘lajak pedagoglarni ham shu jarayonni kuzatish orqali kreyativ va erkin fikrlashga o‘rgatish orqali ularning dunyoqarashini kengaytirishga va yaxshi kadr bo‘lishiga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – 45–47-betlar.
2. Xodjayev B.X. Pedagogika. – Toshkent: Fan, 2016. – 112–118-betlar.
3. Zimnyaya I.A. Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2004. – 89–94-str.
4. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech. – Moskva: Pedagogika, 1982. – 210–215-str.
5. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2018. – 56–60-betlar.
6. Lerner I.Ya. Problemnoye obucheniye. – Moskva: Znaniye, 1981. – 33–38-str.
7. Johnson D., Johnson R. Active Learning. – Boston: Allyn & Bacon, 2009. – pp. 72–78.
8. Polat E.S. Proyektynaya deyatelnost. – Moskva: Akademiya, 2010. – 41–46-str.
9. Slastenin V.A. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2013. – 134–139-str.
10. Bates T. Teaching in a Digital Age. – Vancouver: BCcampus, 2019. – pp. 101–106.